



ZAJJOJIY VA UNING “HURUFU-L-MA’ONIY” ASARI

Hadis ilmi maktabi

“Islom ilmlari” kafedrası mudiri

G‘aniyev Akmaljon Adxamjon o‘g‘li

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tili grammatikasi bo‘yicha yetuk olim Abdurrahmon Zajjojiy va uning eng mashhur asarlaridan biri “Hurufu-l-maoniyy” kitobi haqida so‘z boradi. Olimning bu asari nafaqat arab tili grammatikasi bo‘yicha, balki islom ilmlari, xususan, usulu-l-fiqh fanida ham muhim manba hisoblanadi. Maqolada asarning o‘ziga xos jihatlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Yordamchi so‘z turkumi, so‘z turkumlari, basra, kufa, grammatika, usulu-l-fiqh, arab tili, ibn Xallikon.

Yordamchilar haqida birinchi bo‘lib asar yozgan mashhur olimning to‘liq ismi Abul Qosim Abdurrahmon ibn Ishoq Zajjojiy bo‘lib, tug‘ulgan sanasi noma‘lum. Uning “Zajjojiy” nisbati ustoz Abu Ishoq Ibrohim ibn sirriy Zajjojni mahkam tutib, u bilan ko‘p birga bo‘lgani sababidan berilgan. Hamodoning janubida joylashgan Nahovan shahrida ulg‘aygan. So‘ngra ilm markazlaridan biri bo‘lmish bog‘dod shahriga safar qilgan. Zajjojiy Basra va Kufaning juda ko‘plab olimlaridan ta‘lim olgan. Jumladan: Abu Ishoq Zajjoj, Abu Bakr Sarroj, Axfash as-sag‘ir, Abu Bakr Anboriy va ularning nomi uzoq vaqt davomida sanab o‘tish talab etiladgan juda ko‘plab olimlardan ta‘lim olgan. Albatta bunday katta ilm sohiblaridan ta‘lim olishi uning buyuk olim bo‘lib yetishishiga va juda ko‘plab shogirdlar chiqarishiga sabab bo‘lgan.

U buyuk nahv olimlaridan bir bo‘lib yetishgan va mashhur Abu Ali Forisiy va Sayrofiylar darajasidagi martabaga erishgan.¹

¹ أبو البركات كمال الدين عبد الرحمن ابن محمد الأنباري. نزهة الألباء في طبقات الأدباء. - القاهرة دار الفكر العربي 1997. - 265 ص



Uning buyukligini yozgan asarlarning ko‘pligi va turli mavzularda ekanidan ham bilib olish mumkin. Zajjojiy asarlarida o‘zi ta’lim olgan ustozlari va zamondosh olimlarning aqllarida jo bo‘lgan sochilib yotgan ma’lumotlari jamlagandek go‘yo. Lekin uning asarlari oldingilarni uslubida deb ham ayta olmaymiz. U boshqalardan ajralib turadigan uslubda yozishga va ularda o‘zining shaxsiy qarashlarini bayon etishga harakat qiladi.

Zajjojiyning Sibavayh va Xolil ibn Ahmad kabi Basraning yetuk olimlarining qarashlarini hamda Kisoiy va Farri kabi Kufalik allomlarning qarashlarini o‘rgangan bo‘lsada, uning tasniflarining o‘rgangan odamga uning ko‘proq Basra grammatika maktabiga mansub ekanligiga guvoh bo‘ladi. Shunday bo‘lsada, bir maktabga mutaassib bo‘lmagan. Bakli barcha masalalarni yoritishda xolisona va o‘ziga xos uslubda bayon qilgan. Bu aynan yetuk ilmlariga xos sifat hisoblanadi.

Zajjojiyning mashhur asarlaridan biri bu uning “Al-Jumal” asaridir. Bu asar haqida Ibn Xallikon shunday deydi: “Uning muborak “Al-Jumal” kitobini o‘qigan odam borki foyda oladigan kitobdir... Uni Alloh himoyasiga olgan Makka shahrida yozgan. Uning bir bobini tugatsa, bir hafta tavof qilib, o‘zining gunohlari kechirilishini va kitob o‘qigan odamga foydali bo‘lishini so‘rab duo qilgan.”²

Yana bizgacha yetib kelgan asari “Kitab ul-Amoliy” bu asarida ham yordamchilar haqida ma’lumotlar mavjud.

Lekin Karl Brokkelman ta’kidlaganidek, Zajjojiyning asarlari orasida “Huruf ul-maoniy” (Ma’no anglatuvchi harflar-yordamchi so‘z turkumlari) asari yordamchilar mavzusini o‘rganishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu kitobning hajmi kichik bo‘lsada, o‘z mavzusida bebaho asar hisoblanadi. Doktor Ali Tavfiq Hamadning aytishicha, Zajjojiy yordamchi so‘z turkumlarining ahamiyatini naqadar muhimligini anglagani uchun tolibi ilmlar ularni bir joyda

² ابن خلكان. وفیات الأعیان. الجزء الأول. بیروت: دار الصادر. 2008. 389-ص



jamlangan holda osongina topib olishlari va zehnlariga jo qilishlari uchun, “Huruf ul-maoniy” borasida birinchilardan bo‘lib alohida kitob yozgan olim hisoblanadi.³

Kitobni ba’zilar alohida kitob emas, balki bir kitobning ichidagi bahslar desada, hozirgi kunda aynan Ali Tavfiq I-Hamadning tahqiq ostida 1986-yilda Urdunda “Dor ul-Aqol” nashriyotida chop etilgan nusxasi mavjud.

Yordamchi so‘z turkumlari borasida eng birinchi bo‘lib kim asar yozgani borasida olimlar tomonidan turli qarashlar mavjud. Qiftiyning fikricha, Qazzoz nomi bilan mashhur bo‘lgan Abu Abdulloh Muhammad ibn Ja’far Tamimiy “حروف المعاني” (yordamchi so‘z turkumlari) haqida kitob yozgan bo‘lib, musannif asarida undan oldin biror-bir olib bu mavzu borasida alohida kitob yozgani ma’lum emasligini va buni amalga oshirishga qodir bo‘lgan olimlardan birortasi bu uzoq (odamlardan yiroq ma’lumotlar)ni yaqin qilishga, ma’lumotlarni oson qilib, tarqoq holatni jamlashga urunmaganini zikr qilgan.

Lekin kitob sohibi bo‘lmish Qazzozning vafot etgan sanasiga e’tibor bersak, u zot hijriy 361(ba’zi manbalarda 412) -yilda vafot etgan. Vaholanki, Zajjojiy undan oldinroq hijriy 339-yil yoki 340-yilda vafot etgan. Vafotlari orasi 20 yildan ortiqni tashkil etmoqda. Inson ilmi yetilib pishgan, ma’lumotlarni chuqur anglagandan va ularni to‘liq qamrab olgandan keyin kitob yozishga kirishishini, ayniqsa eng qiyin masalarni o‘z ichiga jo qilgan asar yozish anchagina mahorat va chuqur bilimni talab qilishidan kelib chiqib ayta olamizki, Zajjojiy bu borada birinchi bo‘lib asar yozgan olim hisoblanadi.

Ba’zi olimlar Zajjojiy bilan zamondosh bo‘lgan Abu Ali Forisiy ham “حروف المعاني” (yordamchi so‘z turkumlari) asar yozgani haqida ma’lumotlar mavjud. Lekin u ham Zajjojiydan keyin, hiriy 377-yilda vafot etgan. Undan 37 yoki 38 yildan keyin vafot etganiga nazar solsak, u ham o‘z kitobini Zajjojiydan keyin yozgani ma’lum bo‘ladi.

³ أبو القاسم عبد الرحمن ابن إسحاق الزجاجي. كتاب حروف المعاني. بتحقيق علي توفيق الحمد. الأردن: دار الأمل. 1986. – 19 ص.



Zajjojiydan keyin olimlar tomonidan yordamchilar borasida alohida kitob yozish tarqala boshladi.

Asarning yozilish tarixi haqida soʻz yuritadigan boʻlsak, muallif kitobning muqaddimasida bu haqida quyidagicha bayon qiladi:

"...فإنك سألتني أن أضع لك كتابا أشرح لك فيه جميع معاني الحروف و على كم وجه يتصرف الحرف منها فأجبتك إليه و أحسنت عوننا عليه"

“Siz mendan “حروف المعاني” (yordamchi soʻz turkumlari) hammasi va ularning qaysi maʼnolarni ifodalashi haqida bir kitob yozib berishni soʻragan edingiz. Men yordam boʻlsin deya, sizning soʻrovizga labbay deb javob berdim”⁴

Musannifning yuqoridagi gaplaridan maʼlum boʻlib turibdiki, undan zamondosh tolibi ilmlar yordamchilar haqida alohida barcha yordamchilarni jamlagan va shu bilan birgalikda ularning qanday maʼnolarni anglatishi haqidagi maʼlomtlarni bir joyga jam qilgan kitob yozib berishni iltimos qilishgan. Bu kitob aynan mana shu maqsadda, ularning soʻroviga javob oʻlaroq yozilgan.

Tolibi ilmlarning arab grammatikasida qanchadan qancha maʼlumotlar boʻla turib aynan yordamchilar haqida kitob yozib berishlarini talab qilishlari bu mavzu naqadar muhim ekanini bildiradi. Shu bilan birgalikda oʻsha paytda hanuzgacha bu ish qilinmagani, haliham ehtiyoj borligini bilib olamiz. Bu esa yuqorida aytib oʻtigan, Zajjojiyning bu sohada mutlaq birinchi ekanini, undan oldin bu maʼlumotlar alohida kitob shaklida jamlanmaganini yanada quvvatlaydi.

Kitob oʻz bobidan birinchilardan boʻlib yozilgani eʼtiborga olib, undagi musannifning mavzularni tartiblash ularni boblarga ajratishidagi uslubiga toʻxtalib oʻtsak maqsadga muvofiq boʻladi.

Musannif oʻzidan keyingi ushbu mavzu doirasida yozilgan kitoblarda uchraydigan uslublar uchramaydi. Ulardan baʼzilarida yordamchilarni dastlab bir harflilarini, soʻng ikki harflilarini, undan keyin uch, soʻng toʻrt harflilarini keltirish

⁴ أبو القاسم عبد الرحمن ابن إسحاق الزجاجي. كتاب حروف المعاني. بتحقيق علي توفيق الحمد. الأردن: دار الأمل. 1986. – 65 (1) ص.



ila tartiblaganiga guvoh bo'lsak, ba'zilarida alifbo tartibida jamlaganlarini ko'rishimiz mumkin. lekin Zajjojiy na birinchi uslubdan na ikkinchi uslubdan foydalangan. Balki ularni aralash holda keltiravergan. Hatto ba'zi yordamchilarni takror holda keltiradi. Masalan: “مِنْ”⁵ old ko'makchisi haqida kitobning 50, 76 va 82 betlarida bahs yuritadi. Lekin ularning hech biri takror ma'lumotlar emas. Birinchi marta bahs yuritgandan boshqa va kerakli deb bilgan vazifalarini ikkinchisida, ulardan farqli jihatlarini uchinchi martasida aytib o'tadi. Bunga kitobning birinchi bo'lib yozilganligi sabab bo'lgan deyo olamiz. Chunki zamon o'tishi bilan keyinchalik yozilgan kitoblarda o'zidan oldingi asarlarda uchraydigan noqulayliklarni bartaraf etishga harakat qilingan.

Mavzuni bayon qilish uslubiga keladigan bo'lsak, asarda jami 137 ta xil so'zning gapdagi vazifasi va ma'nosi haqida bahs yuritiladi. Lekin ularning hammasi yordamchi so'z turkumiga mansub emas. Ular orasida fe'l so'z turkumiga oid so'zlarni uchratamiz. Ular asosan, “كان” va uning sheriklaridan iborat fe'llar. Bundan tashqari ot so'z turkumiga mansub so'zlar ham mavjud. Lekin bu holat ya'ni ot so'z turkumini yordamchilar ichida aytib o'tish deyarli barcha kitoblarda uchratiladi. Bunga ularning gap tarkibida yordamchilar bilan bir xil vazifani bajarishi sabab bo'ladi.

Mavzuga kirishishdan oldin, avvalo, bahs yuritiladigan yordamchini zikr qilib, so'ng uning qanday ma'nolarni ifodalashini aytib o'tadi. Har bir yordamchining har bir ifoda etadigan ma'nosini uning gap tarkibida boshqa bo'laklar bilan aloqasidan kelib chiqib, ularga Qur'oni karim oyatlari va arab shariyatidan misollar keltirish ila isbotlab beradi.

Kitobdagi foydalanilgan manbalarga keladigan bo'lsak, albatta, Zajjojiy ham o'zidan oldingilarning uslubini tutgan hamda bayon etilmish qoidalarni isbotlash uchun Qur'oni karim oyatlari, hadisi shariflar va hemma keng foydalanadigan arab she'riyatidan foydalangan.

⁵ أبو القاسم عبد الرحمن ابن إسحاق الزجاجي. كتاب حروف المعاني. بتحقيق علي توفيق الحمد. الأردن: دار الأمل. 1986. – 50, 76, 82 ص.



Yordamchilar mavzusini yortishda boblarni va qoidalarni nomlashda, ularga misollar keltirishda Xolil ibn Ahmad va Sibavayhlarga ergashgan. Zajjojiy ba'zi masalalarni, xususan, bizning tadqiqotimiz asosi bo'lmish old ko'makchilar mavzusini o'zidan oldin yashab o'tgan Abu Muhammad Abdulloh ibn Muslim ibn Qutaybaning (vafoti hijriy 276-yil) "تأويل مشكل القرآن" asarida kelgan ⁶ "باب دخول" "حروف الصفات مكان بعض" (Sifat harflari (old ko'makchilar)ning bir-birining o'rnida qo'llanishi bobida) kelgan masalalarni so'zma-so'z o'z kitobida zikr qilgan. Albatta har bir olim o'zidan oldingi olimlarning qaysidir jihatlariga ergashadi. Chunki har bir ilm dastlab boshqaning fikriga ergashib, uni tasdiqlashdan boshlanadi. Keyinchalik, o'z ustida ishlayvergani sari o'zining shaxsiy fikrlariga ega bo'lib boradi. Kitob yozayotgan paytda ana shu fikrlarni o'z fikriga muvofiq kelganini shundayicha zikr qiladi.

Asar nafaqat arab tili grammatikasi bo'yicha balki usulu-l-fiqh bo'yicha ham muhim manba hisoblanadi. Chunki asarning mazmuni bo'lmish yordamchi so'z turkumlari usul al-fiqh ilmi – shar'iy dalillardan hukmlar istinbot qilish katta ahamiyat kasib etadi. Shuning uchun ham usul al-fiqh fani borasida yozilgan asarlarda ular uchun alohida bob ajratilgan. Demak bu asarni o'rganish shariy ilmlar bilan shug'ullanuvchi tolibi ilmlar uchun ham katta foyda beradi.

Foydalanigan adabiyotlar va manbalar ro'yxati:

1. Abul Qosim Abdurahmon ibn Ishoq Zajjojiy. Kitab-u-l-hurufi-l-ma'oniyy. Ali Tavfiq Al-Hamd tahqiqi ostida. Urdun.: Dorul aqol, 1986. 200 b.
2. Abul Barakot Kamoliddin Abdurrahmon ibn Muhammad Anboriy. Nuzahatul alibbo fi tabaqoti-l-udabo. Qohira.: Dorul fikr al-arobiy, 1997. 418 b.
3. Ibn Xallikon. Vafayotu-l-A'yon. 1-juz. Bayrut.: Dorus sodr, 2008. 494 b.

⁶ أبو عبد الله بن مسلم بن قتيبة الدينوري. تأويل مشكل القرآن. بيروت: دار الكتب العلمية. 298 ص.